

**TARIXIY ONG VA MILLIY XOTIRANI TIKLASHDA O‘ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING TASHQI SIYOSAT VA XALQARO HAMKORLIKDAGI
O‘RNI (O‘ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI MISOLIDA)**

Yulduz Boboqulovna Tursunova,

*“University of Business and Science” “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.
yulduztursunova1083@gmail.com*

Pirmatov Doniyor Rustam o‘g‘li,

University of business and science Toshkent filiali magistranti

Annotatsiya Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy-tahliliy asosda yoritiladi. Xususan, mustaqillikdan keyingi davrda tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik masalalari hamda Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda davlatning geosiyosiy o‘rni va tashqi siyosat strategiyasining evolyutsiyasi ilmiy asosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, geosiyosat, Markaziy Osiyo, integratsiya, xavfsizlik, diplomatiya.

Аннотация. В статье анализируются этапы формирования и развития внешней политики Республики Узбекистан. Особое внимание уделяется приоритетным направлениям внешней политики в период независимости, сотрудничеству с международными организациями, вопросам региональной безопасности и интеграционным процессам в Центральной Азии. Раскрывается геополитическое положение страны и эволюция ее внешнеполитической стратегии.

Ключевые слова. внешняя политика, международные отношения, геополитика, Центральная Азия, интеграция, безопасность, дипломатия.

Abstract. This article analyzes the formation and development of the foreign policy of the Republic of Uzbekistan. Special attention is paid to the priorities of foreign policy in the post-independence period, cooperation with international organizations, regional security issues, and integration processes in Central Asia. The study highlights the geopolitical position of the country and the evolution of its foreign policy strategy.

Keywords. foreign policy, international relations, geopolitics, Central Asia, integration, security, diplomacy

Kirish. Har bir davlat taraqqiyotida davlatchilik va tashqi siyosat muhim o‘rin tutadi. Tarixdan ma‘lumki, o‘zbek davlatchiligi boy va shonli tarixga ega. Davlatimiz qulay geostrategik hududda joylashgan bo‘lib, asrlar davomida Sharq va G‘arbni bog‘lovchi muhim savdo yo‘llari aynan yurtimiz hududidan o‘tgan. Shu bois, bu hududda shakllangan davlatlar faol tashqi siyosat yuritgan va xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin egallagan.

Chor Rossiyasi va Sobiq SSSR davrida O‘zbekistonning tashqi siyosati va mustaqil aloqalari cheklab cheklab qo‘yildi. Bir yoqlama iqtisodiy va siyosiy tizim joriy qilindi. Sovet davlati tashqi va ichki siyosatda yopiq tizimga bo‘lib, O‘zbekiston SSRni

tashqi dunyodan uzib qo‘ydi va uni markaz siyosatining ijrochisiga aylantirdi. Rasmiy jihatidan O‘zbekiston SSR suveren Respublika sifatida xorijiy davlatlar bilan aloqalar o‘rnatish huquqiga ega deb e’tirof etilgan bo‘lsa-da, amalda bu huquqlar ro‘yobga chiqarilmadi. SSSR yakkahokimligi davrida O‘zbekiston SSR tashqi siyosatda o‘z idoralariga ham diplomatlariga ham ega emas edi.

Ma’lumki, 1991-yil 31-avgustda O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kundanoq jahon hamjamiyatiga qo‘shilish, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, faol tashqi siyosat olib borish yo‘lini tanladi. Albatta, ushbu yillarida O‘zbekiston jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklarga duch keldi. Xususan, tashqi siyosatni yuritishda yetarli tajribaning yo‘qligi, xalqaro aloqalarni mustaqil tashkil etish mexanizmlarining endigina shakllanayotganligi sezilarli muammolarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, ichki ta’minot tizimida ham murakkab vaziyat kuzatildi. uzoq yillar davomida, ya’ni qariyb 70-yildan ortiq vaqt mobaynida sobiq ittifoq markazlashgan taqsimot tizimi orqali boshqarilgan iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish va taqsimot zanjirlari izdan chiqdi. Natijada, mahsulot yetishmovchiligi, iqtisodiy beqarorlik va infratuzilma muammolari yuzaga keldi. Bunday sharoitda davlat yangi iqtisodiy va tashqi siyosiy yo‘nalishlarni shakllantirish, mustaqil rivojlanish modelini ishlab chiqish zarurati bilan yuzma-yuz keldi. Dastlabki yillardanoq O‘zbekiston mustaqilligini xalqaro maydonda tan olish va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar o‘rnatish, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik va mintaqada barqarorlikni saqlashga harakat qilindi.

Muhokama va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobi “Tashqi siyosat” ga bag‘ishlangan bo‘lib, 17-moddada tashqi siyosat prinsiplari belgilab berilgan. Ular qo‘yidagilardan iborat.

- Davlatlarning suveren tengligini tan olish;
- kuch ishlatmaslik va tahdid qilmaslik;
- davlat chegaralarining daxlsizligini e’tirof etish;
- nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga amal qilish.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tinchlikparvarlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosatni izchil ravishda amalga oshira boshladi. Davlat xalqaro maydonda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, xalqlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan faol diplomatik strategiyani yo‘lga qo‘ydi. Ushbu siyosat jahon hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanib, keng qo‘llab-quvvatlandi.

Natijada, O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro miqyosda tan olinishi jadallashdi va uning global siyosiy tizimdagi o‘rni mustahkamlandi. Qisqa vaqt ichida

Toshkent shahrida AQSh, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Fransiya kabi yetakchi davlatlarning elchixonalari ochilishi mamlakatning xalqaro aloqalari kengayib borayotganidan dalolat berdi.

Mazkur jarayonlar O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida yangi bosqich boshlanganini yaqqol namoyon etdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 130 dan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 44 ta chet el elchixonalari, 1 ta bosh konsullik, 8 ta faxriy konsullar, 17 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 13 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta diplomatik maqomga ega savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud bo‘lib, 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a‘zosi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi turli ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sheriklik aloqalarini izchil rivojlantirib kelmoqda. Mamlakat tomonidan milliy manfaatlarga mos keladigan faol va ko‘p tarmoqli tashqi siyosatni amalga oshirish davlatchilik mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish hamda aholi turmush darajasini yaxshilashning muhim omili sifatida belgilandi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual asoslari Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillarga tayanadi. Ushbu prinsiplar davlatning xalqaro maydondagi strategik yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Birinchidan, milliy-davlat manfaatlari ustuvorligi saqlangan holda, o‘zaro manfaatdorlik tamoyiliga amal qilish ko‘zda tutiladi. O‘zbekiston hech qaysi yirik davlatning ta’sir doirasiga tushishni maqsad qilmaydi va mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan suveren davlat sifatida faoliyat yuritadi.

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda umumbashariy qadriyatlarga ustuvor ahamiyat berilib, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, mojarolarni faqat tinch yo‘l bilan hal etish asosiy vazifa sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston harbiy bloklarda ishtirok etmaslik va xalqaro huquq normalariga qat’iy rioya qilish siyosatini olib boradi.

Uchinchidan, tashqi siyosat teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari asosida olib borilib, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik prinsipiga qat’iy amal qilinadi. Bu yondashuv davlatlararo munosabatlarda barqarorlik va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat’i nazar, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng ko‘lamli hamkorlik aloqalarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaraladi.

Beshinchidan, milliy huquqiy tizim shakllanish jarayonida xalqaro huquq normalarining ustuvorligi tan olinadi. Bu esa O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonida xalqaro standartlarga moslashuvini ta‘minlaydi.

Oltinchidan, o‘zaro ishonch tamoyiliga asoslangan holda ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish davlat tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosat tizimi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may oyidagi “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida” gi va 1994-yil mart oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” gi qarorlari asosida shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z tashqi siyosatini Tashqi ishlar vazirligi va uning horijdagi vakolatxonalari orqali amalga oshiradi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi, mamlakatdagi ayrim xalqaro tashkilotlar, kengashlar va jamiyatlar O‘zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va o‘z Nizomiga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifalari mamlakat suverenitetini mustahkamlash, davlat rahbarining tashqi siyosat sohasidagi strategik yo‘nalishlarini amalga oshirish hamda xorijiy davlatlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, vazirlik xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini himoya qilish, uning fuqarolari huquq va manfaatlarini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Prezident topshiriqlariga muvofiq tashqi siyosiy faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni takomillashtirishda ishtirok etadi.

Respublikada diplomatik va konsullik muassasalarini rivojlantirish maqsadida maxsus jamg‘arma tashkil etilgan bo‘lib, u ushbu tizimni moddiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, vazirlik huzurida “Jahon” axborot agentligi faoliyat yuritadi. Ushbu agentlik O‘zbekistonning tashqi siyosati, xalqaro aloqalari va jahon miqyosidagi muhim voqealar haqida tezkor va ishonchli axborotlarni tarqatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1996-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy printsiplari to‘g‘risida” gi Qonuni qabul qilindi (7 moddadan iborat). Mazkur Qonunda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari aniq va izchil tarzda belgilab berilgan. Unga ko‘ra, davlat o‘zining oliy manfaatlari, xalq farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqib, turli ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklar hamda boshqa davlatlararo tashkilotlarga a‘zo bo‘lish huquqiga ega. Shu bilan birga, zarurat tug‘ilganda bunday tuzilmalardan chiqish imkoniyati ham nazarda tutiladi. Qonunda O‘zbekistonning barcha davlatlar bilan teng huquqli va o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga intilishi alohida ta’kidlanadi. Bunda davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ularning mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish asosiy prinsip sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida faol ishtirok etishga intiladi. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli tuzilmalar bilan hamkorlik qilish orqali global va mintaqaviy xavfsizlik tizimlariga integratsiyalashuv muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanadi.

Qonunda xalqaro iqtisodiy hamkorlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, mamlakatning barqaror rivojlanishi, izchil taraqqiyoti va milliy xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, O‘zbekistonning jahon xo‘jalik tizimiga axborot, texnologik va kommunikatsion jihatdan integratsiyalashuviga ko‘maklashish ustuvor vazifa sifatida qayd etiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik tamoyiliga amal qiladi. Shu bilan birga, mintaqaviy va global miqyosdagi mojarolarni oldini olish hamda ularni tinch yo‘l bilan hal etishda hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar faoliyatida faol qatnashish tashqi siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati mustaqillikdan so‘ng bosqichma-bosqich shakllanib, milliy manfaatlarga asoslandi. Davlat xalqaro maydonda faol ishtirok etib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi tuzilmalar bilan hamkorlikni kengaytirdi. Tarixiy tajriba, geostrategik joylashuv hamda global siyosiy jarayonlar ta’sirida mamlakat o‘zining mustaqil tashqi siyosat modelini ishlab chiqdi va uni izchil amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati taraqqiyoti davlatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, milliy xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan izchil strategik yo‘nalish ekanligini

ko‘rsatadi. Kelgusida ham ushbu siyosat zamonaviy global tendensiyalar va milliy manfaatlar uyg‘unligi asosida yanada takomillashib borishi kutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.. “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1992.
3. Karimov I.A. *O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.* – Toshkent, 1992.
4. Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. –Т.. Адолат, 2001. – Б. 83
5. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida Qonun. – 1996.
6. Саидов А., Таджиханов У.,Одилқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. – Т.. Шарқ, 2002. – Б.164.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1992
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil may va 1994-yil mart oylaridagi qarorlari
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonun, 1996-yil 26-dekabr // Lex.uz.